



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

IDS

LEIBNIZ-INSTITUT FÜR
DEUTSCHE SPRACHE



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini o'z vaqtida va samaralari bajarilishini ta'minlash maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Nemis tili kafedrasini hamda "ARES" ilmiy jurnal hamkorligida zamonaviy tilshunoslik sohasini hozirgi kun nuqtai nazaridan o'rganish, undagi mavjud muammolarni aniqlashtirish va ularga yechim topish, xorijda va respublikamizda filologiya va lingvodidaktika sohasida bajarilayotgan ishlar bo'yicha o'zaro fikr almashish hamda (yosh) olim, magistrant, doktorant va mutaxassislarning ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek ta'lim-tarbiya jarayonlarida xorijiy tillarni o'qitishni yuqori saviyada rejalashtirish, tashkillashtirish va o'tkazish, chet tillarni o'rgatishning roli va ahamiyati hamda undagi dolzarb muammolar va ularni yechish yo'llarini muhokama qilish, o'zaro fikr almashishga yo'naltirilgan tadbirlarni o'tkazish maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i asosida 2024-yilning 23-24-aprel kunlari bo'lib o'tadigan

«ZAMONAVIY FILOLOGIYA VA LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI» mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasiga taklif etamiz.

Mazkur anjuman Germaniya Federativ Respublikasi Mannhaym shahrida joylashgan Nemis tili instituti hamda O'zbekiston Respublikasining nemis tili o'qitiladigan universitetlari, jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Namangan davlat universiteti o'rtasida 2023 yil imzolangan shartnoma doirasida barcha hamkor oliygohlar hamkorligida o'tkaziladi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha materiallar taqdim etish mumkin:

- Filologiya (tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik)ning dolzarb masalalari;
- Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari;
- Leksikografiyaning dolzarb masalalari: an'anaviy va elektron lug'at tuzish nazariyasi va amaliyoti;

- Chet tillarni o'qitish metodikasida innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalarini qo'llash masalalari;
- Qiyosiy filologiya va qiyosiy lingvokulturologiyada innovatsion masalalar didaktikasi va metodikasi.

Konferensiya rasmiy tillari: o'zbek, rus, nemis, ingliz, ispan va fransuz tillari.

Materiallar (maqola, tezislar) qabul qilish muddati: 2024-yilning 10-aprel kuniga qadar @chdpu_anjuman (971199502) telegram manziliga yoki chdpu_anjuman@mail.ru elektron pochta orqali qabul qilinadi hamda [GOOGLE SCHOLAR](#), [INTERNET ARXIV](#), [RESEARCHBIB](#), [CYBERLENINKA](#), [INDEX COPERNICUS](#) va O'zbekiston Respublikasi Innovatsion vazirligining [SLIB.UZ](#) xalqaro bazalarida indeksatsiyalanadi, shuningdek, "*Academic Research in Educational Sciences*"¹ jurnal platformasida (www.ares.uz) elektron ko'rinishda joriy yilning 30-aprel kuniga qadar nashr etiladi. Anjuman ishtirokchilariga elektron sertifikat taqdim etiladi.

Barcha ilmiy tezislarni tahririyat tomonidan anonimlashtirilgan holatda tekshiriladi va tekshiruvdan ijobiy o'tgan tezislarni mualliflariga to'lov rekvizitlari yuboriladi. Tezisni chop etish uchun to'lov quyidagicha:

- talabalar va magistrantlar uchun **50 000** (ellik ming) so'm;
- professor-o'qituvchilar, doktorant va tadqiqotchilar uchun **100 000** (yuz ming) so'm.

To'lov uchun karta raqami: 9860020118409133 (Kuvonov Zarifjon)

Anjumanda ishtirok etish shakli: Anjuman an'anaviy shaklda hamda ZOOM platformasi orqali tashkil qilinadi. Xorijlik mutaxassislar va viloyatlardagi ishtirokchilar o'z ma'ruzalari bilan onlayn tarzda ishtirok etishlari mumkin.

Maqolalar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- Maqolalar konferensiya yo'nalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, amaliy tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim (hajmi – kamida 5 bet);
- Word matn redaktorida Times New Roman 14 pt o'lchamli shrifti bilan 1,5 intervalda, qog'oz o'lchovi A 4 210x197 mm, matn maydoni yuqoridan va pastdan 2 sm, o'ngdan 1,5 sm, chapdan 3 sm;
- Maqola mavzusi bosh harflarda va qoraytirilgan holda yozilishi, keyingi qator o'ngdan muallifning ismi, familiyasi va sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, lavozimi va ish joyi ko'rsatiladi.
- Maqola annotatsiyasi va kalit so'zlar (kamida 7 ta) maqola yozilayotgan tilda va ingliz tilida berilishi shart.
- Foydalanilgan adabiyotlar kamida 3-4 ta nomdagi adabiyotni tashkil etishi zarur.
- Maqolaga havola (snoska)lar [1,2...] ko'rinishida va maqola so'ngida "Foydalanilgan adabiyotlar" bandiga adabiyot sifatida ketma-ketlikda, tartib bilan havola raqami ko'rsatilishi kerak.
- Mavzuga tegishli bo'lmagan, tahrir qilinmagan hamda imlo xatolari bilan taqdim etilgan maqolalar ilmiy to'plamga kiritilmaydi.

¹ ARES jurnali Cite Factor bazasida 0.89, SIS bazasida 1.12, SJIF bazasida 6.897, UIF bazasida 6,1 impakt faktor bilan e'tirof etilgan.

TEZIS SARLAVHASI

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich

f.f.f.d. (PhD), dotsent

Nemis tili kafedrası mudiri

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Email: z.sanakulov@cspi.uz

Annotatsiya: annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya

Kalit soʻzlar: kalit soʻz, kalit soʻz, kalit soʻz, kalit soʻz, kalit soʻz, kalit soʻz, kalit soʻz **Abstract:** abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract, abstract.

Keywords: keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords.

Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn. [1; 1] Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn. [2; 13] Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn. Asosiy matn.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirzaev T. Oʻzbek xalq maqollari. – Toshkent: «Sharq», 2012.
2. Tumanishvili K. The specific and the Universal in the Proverb Genre / Rustaveli Institute of Georgian Literature. Vol. 1, 2007.
3. Yuldasheva, M.M. The interpretation of the concept ‘knowledge’ in English literature. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(10). 2019.

Bogʻlanish uchun masʼullar va telefonlar:

+998 97 119 95 02	Kuvonov Zarifjon
+998 91 166 18 97	Zaripova Ziyoda (oʻzbek tili uchun)
+998 91 576 86 45	Shirnazarova Zamira (nemis tili uchun)
+998 97 345 18 35	Shabidinova Zera (rus tili uchun)
+998 94 925 07 02	Mirvaliyev Furqat (ingliz tili uchun)

**Tashkiliy qoʻmita manzili:**

Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur koʻchasi, 107. (Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 3-binosi)